

## TOPONIMLARNI O'RGANISHGA BAG'ISHLANGAN ISHLAR XUSUSIDA

Kenjayeva Iroda Alisherovna

GulDU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20839851>

**Annotatsiya.** Maqolada Sirdaryo viloyati toponimlari masalasi tahlil etilgan. Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanishida davrlarning, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotning ta'siri haqida fikr yuritiladi. Toponimlar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

**Tayanch so'z va iboralar.** Til, so'z, atama, toponim, etnotoponim, antroponimlar, berqaror toponimlar.

Toponimiya sohasining yo'nalishlari bo'yicha qator dissertatsiyalar yaratildiki, ularda O'zbekiston hududiga oid joy nomlarini yig'ish, aniqlangan materialni mavzu guruhlari bo'yicha tizimlashtirish, leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tadqiq etish kabi vazifalar o'z yechimini topgan.

Bu tadqiqotlarni o'rganish ko'lamiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1-guruhga katta hudud toponimiyasi materiali qamrab olingan ishlar kiradi: S.Qorayevning "Opit izucheniya toponimii Uzbekistana", O.Begimovning «Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami» (1999);

2-guruhga viloyat toponimiyasi tadqiq qilingan ishlarni kiritish mumkin: T.Nafasovning «Топонимы Kashkadarinskoy oblasti» (1968), (1969), Z.Do'simovning "Топонимы Severnogo Xorezma" (1970), Sh.Qodirovaning "Микротопонимы Tashkenta" (1970), Yo.Xo'jamberdiyevning "Istoriko-etimologicheskoye issledovaniye toponimi Surxandarinskoy oblasti" (1974), S.Naimovning "Oykonimi Buxarskoy oblasti" (1984), M.Ramazanovning "Razvitiye oykonimii Tashkentskoy oblasti v sovremenniy period" (1986), A.Zokirovning "Топонимиya Djizakskoy oblasti Uzbekskoy SSR" (1991);

3-guruhga shahar va unga tegishli hududlar toponimiyasi o'rganilgan ishlar kiradi: T.Rahmatovning "Топонимиya goroda Samarkanda i yego okrestnostey" (1973), J.Latipovning "Топонимиya goroda Margelana i yego okrestnostey" (1975), N.Oxunovning "Топонимы Kokandskoy gruppi rayonov" (1978), N.Mingboyevning "Топонимиya Mirzachulya" (1988), T.Enazarovning "Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi" (1993), X.Bo'riyevaning "Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi" (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) (2007);

4-guruhga biror tuman toponimiyasi tadqiq obykti bo'lgan ishlar kiradi: X.Xolmo'minovning "Микротопонимиya Boysunskogo rayona i yego okresnostey" (1993), U.Oripovning «Nurota tumani makro va mikrotoponimiyasining lisoniy tahlili» (2003), A.Aslovning «Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili» (2005);

5-guruhga toponimiyaning biror sohasi tadqiq etilgan ishlar kiradi: N.Begaliyevning "Samarqand viloyati gidronimlari" (1994), A.Otajonovning "Xorazm etnotoponimlari va ularning lug'aviy asoslari" (1997), A.Turovning "Samarqand viloyati etnonim va etnotoponimlarining tahlili" (1999), Sh.Temirovning "Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi" (2019) kabi dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

Sohaga oid doktorlik dissertatsiyalari ham yaratildi. Bular sirasiga lingvistika yoʻnalishida Z.Doʻsimovning «Istoriko-lingvisticheskoy analiz toponimii Xorezma» (1986) hamda geografiya yoʻnalishida S.Qorayevning «Oʻzbekiston oykonimlari» (1998) kabi ishlari kiradi.

Toponimiya muammolari yechimiga qaratilgan alohida nashrlar, monografiyalar ham yaratildiki, ular ham, asosan, yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday ishlar qatoriga S.Qorayevning «Toponimika» (T., 1970), «Geografik nomlar maʼnosi» (T.,1978), «Toponimika – geografik nomlar xaqidagi fan» (T., 1980), «Toshkent toponimlari» (T., 1991), «Toponimiya Uzbekistana» (T., 1991), «Oʻzbekiston viloyatlari toponimlari» (T., 2005), «Toponimika» (T., 2006); E.Begmatovning «Joy nomlari – maʼnaviyat koʻzgusi» (T., 1998); Z.Doʻsimovning «Xorazm toponimlari» (T., 1985), «Joy nomlarining qisqacha izohli lugʻati» (T., 1977; hammuallif X.Egamov), «Joy nomlarining siri» (Xiva, 2001; hammuallif M.Tillayeva), «Toponimika asoslari» (T., 2002; hammuallif M.Tillayeva); T.Nafasovning «Janubiy Oʻzbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi» (T., 1985), «Oʻzbekiston toponimlarining izohli lugʻati» (T., 1988), «Qishlogʻingiz nega shunday atalgan?» (T., 1989), «Oʻzbek nomnomasi» (Qarshi, 1993), «Qarshi shahri mahalla va koʻcha nomlari» (T., 2008; hammuallif Sh.Tursunov), «Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi» (T., 2009); B.Oʻrinboyevning «Samarqand viloyati toponimlarining izohi» (Samarqand, 1997), «Asrlardek barhayot nomlar» (Samarqand, 2003), «Jizzax toponimlarining taʼbiri» (Samarqand, 2007); N.Yoʻldoshevning «Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi» (Buxoro, 1993); S.Karimovning «Oʻzbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida» (T., 2006; hammuallif S.Boʻriyev); K.Nazarovning «Joy nomlarini yigʻish soʻroqnomasi» (T., 1995; hammuallif T.Enazarov); T.Enazarovning «Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari» (T., 2001), «Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi» (T., 2002), «Oʻzbekistondagi baʼzi toponimlarning etimologik talqini» (T.,2004); «Nomshunoslik masalalari» (T., 2010); L.Karimovaning «Oʻzbek tilida toponimlarning oʻrganilishi» (T., 2002); A.Muhammadjonovning «Qadimgi Toshkent» (T., 2002); S.Naimovning «Buxoro oblasti toponimiyasi» (T., 1984), «Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lugʻati» (Buxoro, 1997); A.Otajonovning «Xorazm toponimlari» (T., 1997); N.Oxunovning «Joylar va nomlar» (T., 1986), «Til va joy nomlari» (T., 1988), «Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari» (T., 1989), «Joy nomlari taʼbiri» (T., 1994) kabi asarlari mansubdir.

Oʻrta Osiyo geografiyasi hamda toponimiyasini tadqiq etish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan atoqli olim H.Hasanovning «Geografik nomlar imlosi» (T., 1962), «Geografiya terminlari lugʻati» (T., 1964), «Oʻrta Osiyo joy nomlari tarixidan» (T., 1965), «Yer tili» (T., 1977), «Sayyoh olimlar» (T., 1981), «Geografik nomlar siri» (T., 1985) asarlari diqqatga loyiqdir.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, toponimika boʻyicha tadqiqotlar maʼlum bir izchillikka ega emas. Bajarilgan ishlar alohida olingan hudud yoxud mamlakat (viloyat, shahar, tuman) toponimlarining maʼlum bir guruhini leksik-semantik, etimologik tadqiq etish yuzasidan olib borilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, toponimlar hudud jihatidan keng yoki tor qamrov bilan tadqiq etiladi. Bu haqda fikr yuritgan Ye.M.Pospelov toponimik materialni global, lokal, toʻliq,

to'liqsiz kabilarga ajratgan edi<sup>1</sup>. Amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkin, joylar kesimida aniqlangan toponimlar to'liq tadqiq etilmagan.

Toponimlarni muayyan hududga ko'ra o'rganish o'ziga xos ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Bunda hududning toponimiyasi har tomonlama keng va mukammal tadqiq etiladi. Toponimlarni mukammal o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda hududiy toponimik materiallarni qiyosiy o'rganish talab etiladi. Bu talab turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, aholi migratsiyasi hamda aholining shevasi va etnik tarkibiga borib taqaladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, ч. I. – С. 308.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 96 б.
3. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 92 b.
4. Ermatov I. Sirdaryo toponimlari. Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2024. – 88 b.
5. Қораев С. Топонимика. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – Б. 76-85.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 2-том. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 482.
7. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974

<sup>1</sup> Pospelov Ye. M. Kartografirovaniye kak metod issledovaniya substratnoy toponimiki // Vopros yazykoznaneya. – M., 1967. – № 1. – S.80.